

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 1 ISS: 12 (2024)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN  СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА 

INSURANCE



№	MUNDARIJA	
1.	ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА БОЗОРИДА ВОСИТАЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА ПРОГНОЗЛАШ Матиязова Санобар Ражаббайовна	1
2.	СУҒУРТА БОЗОРИДА ИСТЕЪМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ Жакбаров Сардор	4
3.	ТАКОФУЛ РИВОЖИНИНГ ТАРИХИЙ ЖИҲАТЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШ ГЕОГРАФИЯСИ Абдуллаев Равшан Вахидович, Дадабаев Умиджон Абдусамат ўғли	7
4.	ЎЗБЕКИСТОНДА СУҒУРТА МАҲСУЛУТИНИ СОТИШ КАНАЛЛАРИНИНГ БУГУНГИ ХОЛАТИ Абдимўминова Саодат Тахиржонова	10
5.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАЛАБИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ Нуруллаев Абдулазиз Сирожиддинович	13
6.	O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI M.N.Mamatov	16
7.	SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLUKAT MOLIYASIGA TA'SIRI Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li	19
8.	VENCHUR FONDLARINI TASHKIL ETISH: JARAYON VA STRATEGIYALAR Talapova Nargiza Baxriddinova	21
9.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ Имомов Хамдилла Хамдамович	24
10.	MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHİYATINING NAZARIY ASOSLARI Yusupov Ruslan	27
11.	LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASH UCHUN MOLIYAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI Maxmudov Samariddin Baxriddinovich	31
12.	MDH MINTAQASIDA TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EOII TRANSPORT INTEGRATSIYASINING TASHQI OMILLARI VA XAVFLARI Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich	35
13.	COMBATTING THE SHADOW ECONOMY AS AN IMPORTANT DIRECTION OF ECONOMIC POLICY FOR AN INCLUSIVE DEMOCRATIC SOCIETY (EXPERIENCE OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES AS AN EXPAMPLE) Norbaev Tura, Abduraufov Jaloliddin	37
14.	EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOIYILLARI Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi	42



SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLAKAT MOLİYASIGA TA'SIRI

Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li

ISFT instituti "Fundamental iqtisodiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi
email: shohzodurlov25@gmail.com

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 12 DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/226	Ushbu maqolaning maqsadi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev belgilab bergan "Yangi O'zbekistonning 2030-yil strategiyasida ko'zda tutilgan maqsadlardan biri "Suveren kredit reytingini BB- dan BBB ga o'tqazish uchun to'siq bo'layotgan masalalar va qo'shni mamlakatlarning bu borada tutgan yo'li hamda jaxon reyting agentliklari ichida yuqori o'rinda turgan reyting agentliklarining baxolash mezonlari haqida so'z boradi. <i>Kredit reyting, moliya bozori, S&P, Moody's, Fitch Ratings, YaIM, global moliyaviy inqiroz, moliya, Yirik uchlik, davlat qarzi, omil bloklari.</i>
KEYWORDS	

Kirish (Введение/Introduction)

XIX-asrning boshlarida tashkil topa boshlagan suveren kredit reytinglarni baxolovchi kompaniyalar faqatgina yirik korxonalarning suveren reytingini baxolab qolmasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning ham suveren reytingini baxolash, investorlar hamda jaxoning yirik banklari uchun ham ma'lumotlar to'plagan holda mamlakatlarning suveren reytingini ham to'play boshlagan. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qarz olish yoki mamlakat moliya tizimini yaxshilash uchun juda katta imkoniyat yaratishi mumkinligini ochiq ifodasi ekanligini anglab olishgan edi. Shu bois rivojlanayotgan mamlakatlar yoki yirik kompaniyalar suveren reytingini oshirish maqsadida turli xil moliyaviy strukturalar hamda turli yo'llar bilan o'z suveren reytingini oshirishni maqsad qilib borishar hamda buning uchun turli strategiyalar o'ylab topishar edi. Huddi shunday bir vaziyat bugungi kunda bizning ham rivojlanayotgan mustaqil O'zbekistonni ham chetlab o'tamadi. Chunki mamlakat moliya tizimida suveren reyting darajasini yuqorilashu ushbu mamlakatning yirik banklar hamda yirik investitsiya kompaniyalarining ishonchi o'rtishiga zamin yaratadi buning natijasida mamlakatga yirik miqdorda pul oqimi kirib kela boshlaydi. Yirik miqdordagi pul oqimi o'z navbatida ushbu mamlakat iqtisodini rivojlanishi uchun juda muxim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadda maqsadda mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev mamlakatning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasida suveren kredit reytingni bugungi kundagi BB- dan BBB- ga ko'tarishni asosiy masalalardan deb kiritdi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Mamlakatlarning suveren reytingini oshirish uchun qo'llaniladigan usullar hamda ular uchun mo'ljallangan strategiyalarni o'rhanish davomida turli mamlakat olimlari hamda o'zbekistonda faoliyat olib borayotgan olimlarning turli qarashlari hamda turli yo'nalishlarini ko'rishimiz mumkin. Bulardan Hindistonlik Masood O, Bashir F and Sahi AI [2] kabi olimlar o'z maqolalarida suveren kredit reytingni baxolash metodologiyasini o'rganib o'z xulosalarini berishgan bo'lishsalar O'zbekistonlik olimlar A.U.Burxonov hamda F.Q.Sindarov kabi olimlar o'zlarining maqolalarida O'zbekiston suveren kredit reytingini yaxshilash uchun fikirlar hamda xulosalar taqdim etishgan [3]. Bunda tashqari Sh.U.Tog'ayniyazov o'zining maqolasida O'zbekiston suveren reytingini oshirish uchun eng avvalo mamlakatda yirik korxonalar sonini sezilarli ravishda oshirish hamda fiskal va tashqi xaziralarni oshirish masalalarini doimiy ravishda nazoratda ushlash kerakligini takidlab o'tishgan.[4]

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results/Анализ и результаты).

"Yirik uchlik" deb nom olgan S&P, Fitch va Moody's reyting agentliklari tomonidan so'ngi 20 yil ichida berilgan reytinglar va ularni tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlar asosida suveren reyting modeli ishlab chiqildi. Reyting berish metodologiyasi shundan iboratki, u yakuniy bosqichda mamlakatdagi mavjud vaziyatni boshqa davlatlar bilan taqqoslashni taqozo etadi.[5] Bu shuni anglatadiki, vaqt o'tishi bilan mamlakatlarga nisbatan yuqori reytinglarni berish uchun yanada kuchli talablar qo'yiladi, bu esa ushbu reytinglarni oladigan mamlakatlar sonini saqlab, o'rganilayotgan davlatlar obligatsiyalarining ishonchlilik darajasining umumiy o'sishini anglatadi, ammo eng yuqori reytingga ega davlatlar soni deyarli o'zgarmoqda. Modelning hisoblash tenglamasi quyidagicha:[6]

$$Y_{it} = a_i + a_t + 13.95 + 1.34 * \ln(X_1) - 0.06 * \ln(4 + X_2) + 0.33(X_3) + 0.49 * \ln(X_4) - 0.04 * X_5 - 2.93 * D * X_1$$

Bu yerda:

$i = 1, \dots, n$ gacha va $t = 1, \dots, t$ gacha o'zgaradi, bu yerda

Y_{it} - t yil uchun i -mamlakat suveren kredit reytingi;

a_i - i -mamlakatning individual ta'siri;

a_t - t yil vaqti samarasi;

X_1 - aholi jon boshiga YaIM (ming AQSh dollari);

X_2 - inflyatsiya (yillik o'zgarish%);

X_3 - oltindan tashqari xalqaro xaziralar (mlrd. AQSh dollari);

X_4 - xususiy sektorga berilgan ichki kredit (YaIMga nisbatan%);

X_5 - davlatning umumiy qarzi YaIMga nisbatan%;

D - defoltndan keyin reabilitatsiya (1 - 10 yil ichida defolt bo'lgan, 0 - defolt bo'lmagan);

n - mamlakatlarning umumiy soni, t - ko'rib chiqilayotgan davrdagi yillar soni.

Modelning koeffitsientlari quyidagi izohga ega. B_0 - koeffitsienti gipotezali vaziyatda barcha omillar nol qiymatga ega bo'lganda o'rtacha baho 13.95 ga tengligini ko'rsatadi, ular, bu o'rtacha BB qiymatiga to'g'ri keladi. B_1 , B_3 va B_4 koeffitsientlari shuni anglatadiki, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning, oltinsiz xalqaro xaziralarning va xususiy sektorga berilgan ichki kreditlar 1 foiz punktiga o'sishi kredit reytingi

o'rtacha ravishda mos ravishda 1,34, 0,33 yoki 0,49 ga o'sishiga sabab bo'ladi (boshqa omillar ta'sir qilmaydi deb faraz qilinganda). B_2 koeffitsienti shuni anglatadiki inflyatsiya darajasi bir foiz punktiga o'sish, mamlakatning suveren reytingini o'rtacha 0.06 ga pasayishiga olib keladi. B_5 Koeffitsient shuni ko'rsatadiki, davlatning umumiy qarzi mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan har bir foiz punktiga oshishi ushbu mamlakatning suveren reytingini o'rtacha 0,04 punktga kamaytiradi.[7]

Model omil bloklari va miqdoriy ko'rsatkichlari [8]

Blok	Nomi	Blok/ ko'rsatkichlar ulushi
Blok 1	Monitar omillar	30.0%
1	Ishlamaydigan bank ssudalarining ulushi (Bank nonperforming loans to total gross loans (%))	7.5%
2	Mamlakat oltin-valyuta zaxiralari (Total reserves (includes gold, current US\$))	7.5%
3	Inflyatsiya darajasi (Inflation, consumer prices (annual %))	7.5%
4	Davlat qarzini YaIMga nisbati (Public Debt (% of GDP))	7.5%
Blok 2	Tashqi savdo omillari	25%
5	Mamlakat joriy operatsiyalar balansi (Current Account (% of GDP))	5%
6	Tabiiy resurslar rentasi (Total natural resources rents (% of GDP))	5%
7	Tashqi savdoni YaIMdagi ulushi (Merchandise trade (% of GDP))	5%
8	Mamlakat savdosini jahon savdosidagi ulushi (Share of Trade (World))	10%
Blok 3	Siyosiy omillar	25%
9	Huquqiy risklar (Rule Of Law (World Bank Estimate))	10%
10	Doing Business indeksi (Doing Business Rank)	5%
11	Institutsional muhit sifati (Public institutions (GCI component))	10%
Blok 4	Investitsion omillar	20%
12	To'g'ri investitsiyalarni YaIMdagi ulushi (Foreign Direct Investment, net inflows (% of GDP))	7.5%
13	Portfel investitsiyalarni netto-oqimi (Portfolio Equity, net inflows (US\$))	5%
14	Xorijiy investorlar uchun intiyozlar (Prevalence of foreign ownership (GCI component))	7.5%
	Jarima va bonuslar	±23%
Bonuslar	Valyuta omili (valyuta konvertatsiyasi , zaxira valyuta, valyuta ittifoqlarida ishlatilishi)	23%
Jarimalar	Suveren davlatning kredit reytingi	-23%

So'nggi B_6 koeffitsienti oxirgi 10 yil ichida defolt yuzaga kelgan davlatlar uchun ahamiyatli ekanini anglatadi. Ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM bir foizdan ko'proqni tashkil qilgan bo'lsa, suveren reyting o'rtacha hisobda 1,59 ga kam bo'lgan. YaIM ko'rsatkichini deyarli barcha agentliklar uchun katta ahamiyatga ega. Aholi jon boshiga va jami davlat qarzigacha to'g'ri keladi va ular qarama-qarshi belgilar bilan suveren reyting qiymatlariga ta'sir qiladi, bu juda

yaxshi kutilmoqda. Keyingi ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha bir-biriga yaqin suveren reyting ko'rsatkichlari bu oltinsiz rasmiy zaxiralari va xususiy sektorga ichki kreditlar.

Ushbu model bilan reyting agentliklari barcha mamlakatlarning reyting ko'rsatkichlarini hisoblaydi va shu bilan birgalikda O'zbekistonning ham reyting ko'rsatkichlarini hisoblab hozirgi 2024-yilgi ko'rsatkichi BB- deb taqdim etilmoqda.

Yakuniy ballni hisoblashda miqdordagi ko'rsatkichlarning me'yordagi ko'rsatkichlari ularning og'irliklariga ko'paytiriladi va jarimalar va bonuslar blokiga ball qo'shiladi (yoki undan chiqarib tashlanadi).

Reyting modelining umumiy balli ma'lum bir mamlakat (hudud) ning kredit reytingi darajasini belgilaydi.[9]

Reyting agentliklarining reyting qo'mitasi modeli darajasida ko'rsatilgan darajadan farq qiladigan darajadagi reytingni berish yoki o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bu quyidagilar bilan izohlanishi mumkin:

1) mamlakatdagi ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar (siyosiy, makroiqtisodiy, bozor risklari, raqobat muhiti, huquqiy risklar)

2) reyting modeli tomonidan hisobga olingan va hisobot sanasidan keyin yuzaga kelgan va joriy reyting modelida hisobga olinmagan ko'rsatkichlarning sezilarli o'zgarishi, ularni keyinchalik shubhasiz bo'lgan taqdirda.[10]

Xulosa (Conclusions/Заключения).

Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Jahon moliya bozorlaridan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun katta miqdordagi va past foizli moliyaviy kapital jalb qilishni xohlagan har bir davlat uchun yuqori suveren kredit reytingiga ega bo'lish juda muhimdir.. Xalqaro kredit reytinglarida shunchaki mamlakatning xalqaro nufuzi sun'iy ravishda oshirish uchun emas, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini yanada jadallashtirish uchun o'rin olish zarur.

Mamlakatga jalb qilinayotgan tashqi qarz va xorijiy investitsiya mablag'lari sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirib yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan sohalarga jalb qilish orqali YaIM hajmini oshirish, eksport salohiyatini oshirib to'lov balansini yaxshilash, ko'plab ish o'rinlari yaratib aholini ish bilan ta'minlash va bularni amalga oshirish orqali eng muhimi aholini yashash farovonligini oshira olsak, fikrimcha, O'zbekiston dunyoning turli reytingda o'zining munosib o'mini egallay oladi.

References:

- <https://www.lex.uz/uz/docs/-4230916?ONDATE=07.07.2023>
- Periklis Boumparis, Costas Milas, Theodore Panagiotidis. "Economic policy uncertainty and sovereign credit rating decisions: Panel quantile evidence for the Eurozone", Journal of International Money and Finance 79 (2017) 39–71
- A.U.Burxonov, F.Q.Sindarov "Suveren kredit reytingda O'zbekistonning o'zining yaxshilash imkoniyatlari"- "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil.
- Sh.U.Tog'ayniyazov "O'zbekistonning suveren kredit reytingini yaxshilash bilan bog'liq muommolar va ularni bartaraf etish yo'llari
- Sh.Sh.Davirova "Suvren kredit reytingini modeli:nazariy va amaliy jihatlar"- "Uzbridge" electron jurnali, IV son dekabr, 2020 <https://t.me/Bankir>
- Analysis of Moody's Sovereign Credit Ratings: Criticisms Towards Rating Agencies Are Still Valid?
- <https://lex.uz/docs/-4838762?ONDATE=03.06.2020%2000>
- Sh.Sh.Davirova "Suvren kredit reytingini modeli:nazariy va amaliy jihatlar"- "Uzbridge" electron jurnali, IV son dekabr, 2020
- <https://review.uz/uz/post/ozbekistonning-suveren-kredit-reytingi-barqarorligini-taminlovchi-omillari>
- <https://www.lex.uz/uz/docs/-4230916?ONDATE=07.07.2023> ..